



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№3(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 170 sahifa,
16-mart, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Katta guruh tarbiyalanuvchilarida kasb haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirish metodikasini innovatsion ekotizim sharoitida takomillashtirish	18
Uralova Fotima Baxtiyor qizi	
Malakali sportchilarning kommunikativ qobiliyatlarini takomillashtirishda sotsiologik yondashuv (gandbolchilar misolida).....	23
G. A. Valiyeva	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida motor alaliyali bolalarni ruhiy va nutqiy rivojlantirish usullari	27
Suyunova Surayyo Ulash qizi	
Sog'lom bola ekotizimining asoslari: ovqatlanish, immunitet va rivojlanish	31
Israilova Xusnida Adilovna	
Mobil ilovalar yordamida mustaqil o'qishni rivojlantirish	37
Raximova Feruza Najmiddinovna	
Biologiya darslarida muammoli ta'lim texnologiyasini qo'llash orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish	42
Dauekeeva Gulistan Orinbaevna	
Talabalarga ingliz tilidagi matnlarni kommunikativ metod yordamida o'qish texnikasini takomillashtirish usullari	46
Mo'minova Mahliyo Axrorjonovna	
Velosiped haydashning afzalliklari.....	49
Raxmonova Go'zal Bobir qizi	
Компетентностный подход как стратегическая основа модернизации образования и его реализация в преподавании русского языка как иностранного в Узбекистане	54
Мирзакбарова Севда Бахиддиновна	
Umumta'lim maktablarida texnologiya fani mashg'ulotlarini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari va metodlari.....	58
Ziyamova Gulbaxor Tulabayevna	
Типы аббревиации в русском и узбекском языках: сравнительно-типологический анализ.....	62
Рахмонова Бахтигул Пайзилловна	
Maktabgacha ta'limda nutqni rivojlantirish jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish metodikasi	65
Abidjonova Mushtariybonu Qobiljon qizi	
Tarbiyaviy tadbirlarni samarali tashkil etishda maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalarning o'zaro hamkorlik masalalari.....	71
Sanayeva Surayyo Bobonazarovna, Jabborova Shaxina G'affor qizi	
Qadriyatli yondashuv asosida talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish ..	76
G'aybullayev Quvonchbek G'olibovich	
Maktab o'quvchilarida stressga barqarorlik namoyon bo'lishining psixologik tahlili	83
Ismoilova N. Z.	
Yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda milliy qadriyatlarning o'rni.....	87
Karshiyev Jaxongir Abdirayimovich	
Funksional savodxonlikni rivojlantirishda o'qish savodxonligining o'rni va ahamiyati	91
Xatamova Munisa Mamadulla qizi	
Transformatsiyalash tizimi asosida o'quvchilarning loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi	95
Jurayeva Zulayxo Islomovna	
Zamonaviy boshqaruv nazariyalarida rahbar muloqoti (transformatsion, kommunikativ va ishtirokchi boshqaruv yondashuvlari asosida).....	102
Islamova Difuza Dilshodovna	



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik kompetentlikni tabaqalashgan yondashuv asosida rivojlantirish mazmuni	107
Begmatova Nasiba Mengnarovna	
Bo'lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta'limda subyektlar faoliyatini o'rgatish metodikasi	112
Dilshodov Abrorjon Dilshodjon o'g'li	
Pre-Reading Activities to Enhance Foreign Language Reading Comprehension: Reading "The Adventures of Tom Sawyer" in 10–11 Grades	118
Djumaniyazova Zulfiya Kaliyevna	
Nutq aktlarini o'rgatishda autentik materiallardan foydalanishning metodik imkoniyatlari (filologik yo'nalish talabalari misolida)	122
Fayzulloeva Chevar G'ayrat qizi	
Yangi O'zbekistonda talaba-yoshlarni milliy yuksaltirishda jadid-marifatparvarlari ilgari surgan g'oyalarning o'rni va roli	125
Mamadaliyev Abduvoxid Maxsitaliyevich	
Gimnastikaning O'zbekistonga kirib kelish va rivojlanish tarixi	128
N. Q. Mamasidova	
Uglevodorodlar tarkibini aniqlashda massa ulushiga asoslangan reflektiv yondashuv (7-9-sinflar misolida)	131
Maxamadiyev Sharofiddin Jumaboyevich, Smanova Zulayxo Asanaliyevna	
Screencasting materiallarini yaratish va ularni o'quv jarayonida qo'llash	134
Maxmudova Dilfuza Meliyevna, Ergashov Niyozxon Ilyozxon o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda so'z shakllanishini psixolingvistik asoslari	137
Moxirabonu G'aniyeva Adxam qizi	
Maktabgacha ta'limdagi muammolar va yechimlar: o'zbekiston respublikasi tajribasi	140
N. Sh. Miryusupova	
Interaktiv kartografik resurslar va ularning ta'lim jarayonida qo'llanilishining didaktik, kognitiv hamda metodik asoslari	143
Olimova Aziza Abdullayevna	
Mentorlik tizimining tarixiy ildizlari va rivojlanish bosqichlari	147
Oxunova Dilnoza Qaxxorjonovna, Abdumannonova Durdonaxon Shuxratjon qizi	
Talabalarning psixologik holati va stress omillarining prokrastinatsiyaga ta'siri hamda mustaqil ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlash usullari	150
Razakov Farxod Kuvondikovich, Rajabov Hikmat Toshevich	
Talabalarni stulda o'tirgan qiyofachi portreti ranglavhasini ishlashga o'rgatish metodikasi	154
Sadatov Chori Xolmuradovich	
Organik kimyo fanini o'qitishda teskari ta'lim va texnologiyalarning ahamiyati	158
Umrbekova Maftuna Ulug'bek qizi, Babanazarova Ayzada Omirbaevna, Abdulkakimova Gulziyba Ziyatdinovna	
Duduqlanishni bartaraf etishda kompleks metodlarini qo'llashning samaradorligi	162
Xasanova Barnoxon Abdusattor qizi	
Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini takomillashtirish	165
Xolbozorova Nasiba Xolbozar qizi	
Проектирование персонализированных образовательных сценариев в дошкольном образовании средствами генеративного искусственного интеллекта	168
Пак Диана Александровна	

BIOLOGIYA DARSLARIDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYASINI QO'LLASH ORQALI MANTIQUIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH

UDK 372.857:37.02



Dauekeeva Gulistan Orinbaevna

Nukus Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga
tayyorlash markazi biologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada biologiya darslarida muammoli ta'lim texnologiyasini qo'llash orqali o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish masalasi tahlil qilinadi. Muammoli ta'limning nazariy asoslari, uning pedagogik ahamiyati hamda biologiya fanini o'qitish jarayonida samarali qo'llash usullari yoritilgan. Shuningdek, o'quvchilarda tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishda muammoli vaziyatlarning o'rni asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari muammoli ta'lim texnologiyasi biologiya darslarining samaradorligini oshirishi hamda o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: muammoli ta'lim, biologiya darslari, mantiqiy fikrlash, pedagogik texnologiya, muammoli vaziyat, tahlil, umumlashtirish, mustaqil ta'lim, innovatsion metodlar.

Abstract: This article analyzes the issue of developing students' logical thinking skills through the application of problem-based learning technology in biology lessons. The theoretical foundations of problem-based learning, its pedagogical significance, and effective methods for its implementation in the process of teaching biology are discussed. The role of problem situations in developing students' skills of analysis, comparison, generalization, and drawing conclusions is also substantiated. The research findings indicate that the use of problem-based learning technology increases the effectiveness of biology lessons and promotes the development of students' independent thinking.

Key words: problem-based learning, biology lessons, logical thinking, pedagogical technology, problem situation, analysis, generalization, independent learning, innovative methods.

Аннотация: В данной статье анализируется проблема развития логического мышления учащихся посредством применения технологии проблемного обучения на уроках биологии. Раскрываются теоретические основы проблемного обучения, его педагогическая значимость, а также эффективные способы использования данной технологии в процессе преподавания биологии. Обосновывается роль проблемных ситуаций в формировании у учащихся навыков анализа, сравнения, обобщения и формулирования выводов. Результаты исследования показывают, что технология проблемного обучения способствует повышению эффективности уроков биологии и развитию самостоятельного мышления учащихся.

Ключевые слова: проблемное обучение, уроки биологии, логическое мышление, педагогическая технология, проблемная ситуация, анализ, обобщение, самостоятельное обучение, инновационные методы.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda ularni ijodiy va tanqidiy tafakkurga ega bo'lgan shaxs sifatida shakllantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Globallashuv jarayonlari, fan va texnika taraqqiyoti, axborot oqimining keskin ortib borishi ta'lim mazmuni va metodlariga nisbatan yangi talablarni qo'ymoqda. Endilikda o'quvchilarga tayyor bilimlarni yetkazish bilan cheklanib qolish yetarli emas, balki ularni mustaqil ravishda bilim izlashga, muammolarni tahlil qilishga va asosli xulosalar chiqarishga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish dolzarb masalalardan biridir.

Biologiya fani umumiy o'rta ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi, chunki ushbu fan tirik organizmlar tuzilishi va funksiyalarini, ularning rivojlanish qonuniyatlarini hamda atrof-muhit bilan o'zaro bog'liqligini o'rganadi. Biologik jarayonlar murakkab, ko'p bosqichli va o'zaro aloqador bo'lib, ularni tushunish o'quvchilardan mantiqiy fikrlashni, tahlil qilishni hamda sabab-oqibat munosabatlarini aniqlashni talab etadi. Shu bois biologiya fanini o'qitishda an'anaviy reproduktiv metodlardan tashqari, o'quvchilarning faol bilish faoliyatini ta'minlovchi samarali metodlardan foydalanish zarurati yuzaga keladi.



Muammoli ta'lim texnologiyasi ana shunday samarali metodlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Mazkur texnologiya o'quvchilarda bilishga qiziqish uyg'otish, muammoli vaziyatni anglash va uni hal etish jarayonida mustaqil fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Muammoli ta'lim jarayonida o'quvchi tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki muammoni hal etuvchi faol subyektga aylanadi. Bu esa o'quvchilarning bilish jarayonini faollashtiradi, ularning intellektual salohiyatini ro'yobga chiqaradi hamda chuqur va mustahkam bilim egallashiga zamin yaratadi.

Bugungi kunda biologiya darslarida muammoli ta'limni qo'llash masalasi pedagogik nazariya va amaliyotda muhim ahamiyat kasb etmoqda, chunki biologik tushunchalar, qonuniyatlar va jarayonlarni anglash jarayonida o'quvchilarda ko'plab savollar yuzaga keladi. Ushbu savollarni muammoli vaziyatga aylantirish va ularni izchil tahlil qilish orqali o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish mumkin. Ayniqsa, ekologik muammolar, irsiyat va o'zgaruvchanlik, organizm va muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sir kabi mavzular muammoli yondashuv asosida o'rganilganda yuqori samaradorlikka erishiladi.

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish esa nafaqat biologiya fanini muvaffaqiyatli o'zlashtirish, balki o'quvchilarning umumiy intellektual rivojlanishi uchun ham muhimdir. Mantiqiy tafakkur shaxsning voqelikni ongli ravishda idrok etishi, tahlil qilishi, umumlashtirishi hamda asosli xulosalar chiqarishida namoyon bo'ladi. Ta'lim jarayonida ushbu ko'nikmalarni shakllantirish o'quvchilarning kelgusida kasbiy faoliyatida, ilmiy izlanishlarida va kundalik hayotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, biologiya darslarida muammoli ta'lim texnologiyasini qo'llash orqali o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish masalasi pedagogik jihatdan dolzarb va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan muammo sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur maqolada ushbu muammoning nazariy asoslari, biologiya ta'limi jarayonidagi o'rni hamda mantiqiy tafakkurni shakllantirishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Muammoli ta'lim texnologiyasi o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirishda samarali metodlardan biri sifatida ko'plab pedagog olimlar tomonidan asoslab berilgan. Jumladan, J. O. Tolipova biologiya fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyatini yoritib, muammoli ta'lim o'quvchilarning mustaqil bilim olish jarayonini jadallashtirishini ta'kidlaydi. Tolipova va Usmonboeva pedagogik texnologiyalar nazariyasi doirasida muammoli ta'limni shaxsiy faollikni rivojlantiruvchi metod sifatida baholaydi. Rabbimova biologiya o'qitish metodikasi bo'yicha tadqiqotlarida biologik tushunchalarni chuqur o'zlashtirish uchun muammoli savollar tizimi muhimligini ko'rsatadi. Ravshanova esa biologiya fanining ayrim boblarini muammoli metod asosida o'qitish o'quvchilarning tahliliy fikrlash darajasini oshirishini tajriba orqali isbotlagan.

Shuningdek, zamonaviy ilmiy manbalarda muammoli ta'lim o'quvchilarning tanqidiy tafakkuri, refleksiv fikrlashi hamda ijodiy yondashuvini shakllantirishga xizmat qiluvchi innovatsion pedagogik texnologiya sifatida talqin qilinadi. Adabiyotlar tahlili natijalari biologiya ta'limida mazkur yondashuvni qo'llash ilmiy va amaliy jihatdan asoslanganligini ko'rsatdi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda biologiya darslarida muammoli ta'lim texnologiyasini qo'llash orqali o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish masalasi kompleks pedagogik yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqot metodologik jihatdan tizimli, faoliyatga yo'naltirilgan hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillariga tayanadi. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik metodlar uyg'un holda qo'llanildi.

Nazariy metodlar qatoriga ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik konsepsiyalarni taqqoslash, umumlashtirish hamda tizimlashtirish kiradi. Empirik metodlar sifatida kuzatish, pedagogik tajriba, diagnostik topshiriqlar, savolnoma hamda o'quv faoliyati natijalarini baholash usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot tajriba-sinov ishlari umumta'lim muassasasida biologiya fanini o'qitish jarayonida olib borildi. Unda ikki guruh – tajriba va nazorat sinflari ishtirok etdi. Tajriba guruhida biologiya darslari muammoli ta'lim texnologiyasi asosida tashkil etildi, nazorat guruhida esa an'anaviy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot davomida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash darajasi diagnostik testlar, tahliliy topshiriqlar hamda muammoli vaziyatlarni hal qilish natijalari orqali baholandi.

Dastlabki diagnostika natijalari har ikki guruh o'quvchilarning mantiqiy fikrlash ko'rsatkichlari deyarli bir xil darajada ekanini ko'rsatdi. Tajriba yakunida esa tajriba guruhida o'quvchilarning tahlil qilish, sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlash hamda ilmiy xulosa chiqarish ko'nikmalari sezilarli darajada oshgani kuzatildi. Ayniqsa, muammoli savollar asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilarning faolligi ortib, mustaqil fikr bildirishga bo'lgan intilishi kuchaydi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, muammoli ta'lim texnologiyasi qo'llanilgan sinflarda:

- bilimlarni ongli o'zlashtirish darajasi oshdi;
- mantiqiy fikrlash operatsiyalari rivojlandi;
- o'quvchilarning darsga qiziqishi ortdi;
- mustaqil izlanish ko'nikmalari shakllandi.

Statistik tahlil natijalari ham tajriba guruhidagi o'sish ko'rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan yuqori ekanini tasdiqladi. Bu esa muammoli ta'lim metodining samaradorligini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

Tadqiqot natijalari biologiya darslarida muammoli ta'lim texnologiyasini qo'llash o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda muhim omil ekanini ko'rsatdi. Olingan natijalar pedagogika nazariyasida ilgari surilgan ilmiy qarashlar bilan mos keladi hamda ularni amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Xususan, muammoli vaziyat asosida tashkil etilgan o'quv jarayoni o'quvchilarda bilimga ehtiyojni kuchaytirib, ularni faol bilish faoliyatiga jalb etadi.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida ayrim muammolar ham aniqlandi. Masalan, muammoli ta'limni samarali tashkil etish o'qituvchidan yuqori metodik mahoratni, puxta rejalashtirishni hamda individual yondashuvni talab etadi. Ba'zi hollarda o'quvchilarning boshlang'ich bilim darajasi past bo'lsa, muammoli vazifalarni bajarishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Bu esa muammoli topshiriqlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Muhokama natijalariga ko'ra, biologiya fanida muammoli ta'limni qo'llash:

- o'quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantiradi;
- mantiqiy va tanqidiy fikrlashni shakllantiradi;
- bilimlarni amaliyot bilan bog'lashga yordam beradi;
- o'quv jarayonini interaktiv va samarali qiladi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari muammoli ta'lim texnologiyasini biologiya ta'limiga tizimli ravishda joriy etish zarurligini ko'rsatadi. Mazkur yondashuv o'quvchilarning intellektual rivojlanishini ta'minlash bilan birga, zamonaviy ta'lim talablariga javob beradigan mustaqil fikrlovchi shaxslarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Muammoli ta'lim texnologiyasi zamonaviy pedagogikaning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiya an'anaviy reproduktiv ta'limdan farqli ravishda tayyor bilimlarni berishga emas, balki muammoli vaziyatni yuzaga keltirish orqali o'quvchilarni izlanishga, tahlil qilishga hamda xulosa chiqarishga yo'naltiradi. Biologiya fanining mazmuni, obyekti va metodlari muammoli ta'limni qo'llash uchun keng imkoniyatlar yaratadi, chunki ushbu fan tirik organizmlar, ularning tuzilishi, funksiyalari, rivojlanishi hamda atrof-muhit bilan o'zaro aloqadorligini o'rganishga asoslanadi.

Muammoli ta'lim jarayonida o'qituvchi tomonidan sun'iy yoki tabiiy ravishda yaratilgan intellektual qiyinchilik o'quvchilarda bilishga ehtiyoj uyg'otadi. Ushbu ehtiyoj esa fikrlash jarayonining faollashuviga sabab bo'ladi. Biologiya darslarida muammoli vaziyatlar ko'pincha sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlash, biologik jarayonlarning mexanizmlarini tushuntirish yoki kuzatilgan hodisalarning ilmiy izohini topish zarurati bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Masalan, organizmda modda va energiya almashinuvi jarayonlarining buzilishi qanday oqibatlarga olib kelishi, ekologik muvozanatning buzilishi tirik tizimlarga qanday ta'sir ko'rsatishi kabi savollar o'quvchilarning analitik tafakkurini rivojlantiradi ^[1, 3].

Muammoli ta'lim texnologiyasi mantiqiy fikrlashning asosiy operatsiyalarini – tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish va abstraksiyalashni izchil rivojlantirishga xizmat qiladi. O'quvchi muammoli vaziyatga duch kelganda, avvalo mavjud ma'lumotlarni tahlil qiladi, ularni o'zaro bog'laydi, muammoning mohiyatini anglaydi va taxminlar ilgari suradi. Keyingi bosqichda esa ilgari surilgan gipotezalarni dalillar asosida tekshiradi, tajriba yoki kuzatish natijalariga tayangan holda xulosa chiqaradi ^[2, 4]. Ushbu jarayon o'quvchilarning ilmiy tafakkurini shakllantiradi hamda ularda mantiqiy izchillik va dalillilik ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Biologiya darslarida muammoli ta'limni samarali qo'llash laboratoriya mashg'ulotlari, amaliy tajribalar hamda kuzatishlar bilan chambarchas bog'liqdir. Tajriba jarayonida o'quvchilar nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtiradi, natijalarni tahlil qiladi va ularning ilmiy asosini tushuntirishga harakat qiladi. Bu esa bilish jarayonining chuqurlashtirishiga hamda bilimlarning mustahkam o'zlashtirilishiga olib keladi. Shuningdek, muammoli savollar asosida tashkil etilgan guruhli muhokamalar o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantiradi, o'z fikrini asoslab berish hamda boshqalarning fikrini tahlil qilish madaniyatini shakllantiradi ^[5].

Muammoli ta'lim jarayonida o'qituvchining roli ham o'zgaradi. U bilim beruvchi manba emas, balki o'quv jarayonini tashkil etuvchi hamda yo'naltiruvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi. O'qituvchi muammoli vaziyatni to'g'ri tanlashi, savollarni mantiqiy izchillikda berishi hamda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undashi zarur. Shu



bilan birga, muammoli topshiriqlar o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos bo'lishi, ularning bilim darajasidan kelib chiqib murakkablashtirib borilishi lozim.

Biologiya fanida muammoli ta'limni qo'llash nafaqat mantiqiy fikrlashni, balki ilmiy dunyoqarashni ham shakllantiradi. Tirik tabiatdagi jarayonlarning o'zaro bog'liqligini anglash, ekologik muammolar mohiyatini tushunish hamda ularni hal etish yo'llarini izlash o'quvchilarda mas'uliyat hissini kuchaytiradi ^[6]. Natijada ular biologik bilimlarni real hayot bilan bog'lay oladigan, dalillarga asoslangan xulosalar chiqarishga qodir shaxs sifatida shakllanadi.

Shunday qilib, biologiya darslarida muammoli ta'lim texnologiyasini tizimli ravishda qo'llash o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi, ularning mantiqiy va tanqidiy tafakkurini rivojlantiradi hamda mustaqil bilim olish ko'nikmalarini shakllantiradi. Mazkur yondashuv biologiya fanini chuqur va ongli o'zlashtirishga, o'quvchilarning intellektual salohiyatini oshirishga hamda ta'lim sifatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, biologiya darslarida muammoli ta'lim texnologiyasini qo'llash o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Mazkur yondashuv o'quv jarayonini faollashtiradi, o'quvchilarda mustaqil izlanish ko'nikmasini shakllantiradi hamda bilimlarni ongli va puxta o'zlashtirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'lim tizimida biologiya fanini o'qitishda muammoli ta'lim metodlarini keng qo'llash orqali intellektual salohiyati yuqori, mustaqil fikrlay oladigan hamda ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishga qodir shaxslarni tarbiyalash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. J. O. Tolipova. Biologiyani o'qitishda innovatsion texnologiyalar. Pedagogika oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik. – Toshkent: "Cho'lpon", 2011-y.
2. Tolipova O., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2005-y. – 205 b.
3. Rabbimova F. T. Biologiya o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2022-y. – 265 bet.
4. Ravshanova U. 10-sinfda biologiyani "Ekosistema" bobini muammoli o'qitish metodikasini takomillashtirish (umumta'lim maktabi misolida) // Biologiyani zamonaviy tendensiyalari: muammolar va yechimlar. – 2023-y. – T. 1. – № 5. – B. 825–827.
5. Tolipova J. O., G'ofurov A. T. Biologiya ta'limi texnologiyalari. Metodik qo'llanma. – Toshkent: "O'qituvchi", 2002-y.
6. Baxriddinova R. U., Musurmonovich F. S. Distance Learning System in Educational System Instead, and Significance // Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2023-y. – T. 21. – B. 11–13.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.